



XALQ QO'SHIQLARIDA TIMSOLLAR RANG-BARANGLIGI

Yusupova Dinara – Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-kurs talabasi.

Annotatsiya: *ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining qadimiy janri hisoblangan qo'shiq va uning janriy tabiati, mavzudoirasi hamda timsollar olamihaqida so'z yuritiladi. Qo'shiqlarning xalq hayotida tutgan o'rni, lirikadagi badiiy-estetik vazifasi ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *xalq og'zaki ijodi, qo'shiq, "Devoni lug'otit turk", mehnat qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar, tarixiy qo'shiqlar, alla.*

Xalq og'zaki ijodining qo'shiq deb atalgan qadimiy janri adabiyotlarda ko'rsatilishicha, «shlok», «takshut», «ir» (yir), «kug» kabi atamaları bilan atalib kelingan. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asarida qo'shiq, qasida, she'r kabilar «qo'shug'» - tarzida beriladi. [Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'atit-turk. I tom. - T.: Fan, 1960. - Bet. 357.] So'zning ma'nosini sharhlashdagi to'rtlikda «malikaga mendan maqtov yetkaz» shu kabi misrasi borligini, izohdagi qasida atamasini qo'llash ham o'zini oqlaydi. Xalq qo'shiqlari og'zaki ijodimizdagi lirika janriga kiradi. Bu janrning boshqa turdagi asarlardan farq qiluvchi bosh xususiyati unda ijodkorning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, ruhiy holatini ifodalashdan iborat. Qo'shiq haqida nazariy ma'lumot berilgan deyarli hamma adabiyotlarda uning «qo'shmoq» fe'lidan hosil bo'lgani aytiladi. Qo'shiq atamasining tarixi qanchalik sodda tuyilmasin, og'zaki ijodimizdagi bu janr murakkab ruhiy kechinmalarni ifodalashga xizmat qiladi. O'qilganda, eshitilganda tushunish oson sezilgan to'rtliklar zaminida olam-olam ma'no, murakkab qismat yotganini bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Taniqli olim Omonulla Madayev xalq og'zaki ijodidagi lirik tur hisoblangan qo'shiqni quyidagi janr xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi:



1. Qo'shiqlarda inson kechinmalari, qalb izhorlari aks etadi. Shuning uchun ular lirik janrga mansub deb hisoblaydi.

2. Qo'shiq shaklan she'riy ko'rinishda bo'ladi. O'zbek xalq qo'shiqlari, asosan, barmoq vaznda, ba'zan aruzda yaratiladi.

3. Ko'pincha, xalq qo'shiqlari to'rt misradan iboratdir. Go'zal ruhiy holatni ifodalash xususiyatiga ega. Ayni paytda bir necha bandlardan iborat muayyan mavzuni yorituvchi qo'shiqlar ham bor. Ba'zan 6, 8 misrali namunalar ham uchraydi. 4 misralilari a b a b; a a b b; v v g g; a a b b; a a a a tarzda qofiyalanadi

4. 123- bet

Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida xalq qo'shiqlarini 4 turga bo'ladi. Ular:

1. Mehnat qo'shiqlari
2. Mavsum-marosim qo'shiqlari
3. Lirik (ishqiy) qo'shiqlar
4. Tarixiy qo'shiqlar. 129-bet

Mehnat qo'shig'iga misol tariqasida "O'rog'im olmos" qo'shig'ini olsak bo'ladi. Dehqon yerni haydab bo'lganidan keyin yerga narsa ekishi, yetilgan bug'doylarini esa o'rib olishi kerak bo'lgan. Shunda jamoa bilan o'rib olish kerak bo'lgan, shunda ishni tezda tugashi ham jamoaning kayfiyatiga bog'liq bo'lgan. Shunda ushbu qo'shiqni aytishgan:

O'rog'im olmos,

O'rishdan qolmas,

Sira ham tolmas,

O'rmasam bo'lmas.

Folklorshunos Bahodir Sarimsoqov mehnat qo'shiqlarini o'rganish, tahlil qilishning qulayroq yo'lini belgilash maqsadida mehnat qo'shiqlarini ham quyidagi turlarga bo'lishni ma'qul topgan:

1. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar
2. Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar
3. Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar



4. Mavsum-marosim qo'shiqlari [Sarimsoqov B. Qo'shiqlar / O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1990. - B.144]

O'zbekistonda kuzning fayzi alohida qayd qilinadi. Hosil yig'ish, qovun sayli, to'kinlik xalqqa mamnuniyatbag'ishlaydi. Bu faslning ham o'z qo'shiqlari mashhur hisoblanadi:

Qovun-qovunlar dedim,
Mazali qovunlar dedim,
Ey shirinnovvot dedim,
Gurvak qovunlar dedim.

Xalqimizda marosimlar juda ko'p. Yil quruq kelib, bahorda yomg'ir yog'masa, «Yomg'ir chaqirish» marosimi («Sust xotin»); bug'doy, sholi boshhoqlari yetilgan paytda shamol ularni payxon qilsa, «Shamol to'xtatish» («Choy momo»); don mahsulotlarini shopirish (tashqi qobig'idan ajratib olish) vaqtida shamol bo'lmasa, «Shamol chaqirish» («Yo, Haydar»); yil sovuq kelsa, omad yuz o'g'irsa, qurbonlik keltirish marosimlari o'tkazilgan. Ayniqsa, oilaviy marosimlarda: to'y va azalarda qo'shiqlar mehmon va mezbonlarning, mayit egasining doimiy hamrohiga aylangan. To'ylardagi yor-yorlar, o'lan aytishlar, kelin salomlar xalq poetik ijodining mumtoz namunalari bo'lib qolgan. Hayot tajribasi oilaviy turmush totuvlikdan boshlansa, mehr yetakchi bo'lsa, keyingi hayot ham inoqlikda o'tishini tasdiqlagan.

Xalq og'zaki ijodining qadimiy turlaridan biri bu alladir. Allalarni ham lirik qo'shiqlar qatoridagi ajoyib namunalar sifatida baholash mumkin. Boshqa manbalarda esa alla bolalar folklori namunasiekani qayd etiladi. Folklorshunoslikda onaning go'dak farzandini uxlatish maqsadida aytilgan. Ammo allalar matnini o'rganish ularning so'z san'ati namunasi sifatidagi fazilatlarini lirik qo'shiq deb belgilash ham xato emasligini tasdiqlamoqda. Chunki alla matnini go'dak bola tushunmaydi. Binobarin, qo'shiqlarning bu turida onalik mehri, quvonchi, g'ururi; ayni chog'da dardi, alami, o'kinchi o'z ifodasini topadi:

Dilimdagi himmatim, alla.
Og'zimdagi novvotim, alla.
Daryo suvga to'layotir, alla.



O'g'lim menga kulayotir, alla.

O'g'lim menga qarab kulsa,

Ko'nglim nurga to'layotir, alla.

O'zbekiston xalqining tarix sinovidan o'tgan bayram va marosimlari kishilarning o'zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarni, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Bunday an'ana va marosimlarda mamlakatimiz xalqlarining milliy ruhiyati, ma'naviyatining qadimiy ildizlari ham namoyon bo'ladi. Asrlar davomida shakllantirib va rivojlantirib kelingan an'ana va marosimlarda Vatanga sadoqat, kattalarga hurmat, ota-onaga, yetimlar va qariyalarga g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, qon-qarindoshlik va o'zaro yordam, oila sharafini, ayollar sha'nini saqlash, hayotdan ko'z yumgan uzoq-yaqin kishilar xotirasini yodga olish kabi ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan qadriyatlar mujassamlashgan. Zero, milliy axloq va milliy ruhni asrlar oshib kelayotgan folklor san'ati namunalari benihoya ardoqlidir. U bugungi kunda millionlab yoshlarni ergashtirib, har tomonlama ibrat maktabi bo'layotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Folklor-etnografik ansambllari omma mehrini qozonib, yoshlar turmush tarziga asta-sekin singib bormoqda. Xalqimiz badiiy salohiyatining eng go'zal namunalarini o'zida mujassamlashtirgan hamda aks ettirgan umumxalq shodiyonasi – Navro'zi olam bilan bog'liq qo'shiqlar, udumlar va marosimlar qayta tiklandi. Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor asarlarining badiiy xususiyatlari, bayramni o'tkazish bilan bog'liq mahalliy belgilar ro'yobga chiqdi. Bu sohada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar asosida Navro'z bayramida qadimdan mavjud bo'lgan ko'pgina asriy udumlar, xususan, "Yilboshi", "Qozon to'ldi", "Navro'z go'ja tayyorlash", "Sumalak pishirish", "Hashar uyushtirish", "Arg'imchoq uchish", "Lola sayli" kabi o'zligimizni tarannum etuvchi qadimiy udumlarimiz yana hayotga qaytdi. Zero, Navro'z marosimlari, udumlari va qo'shiqlarida mehr va muruvvat, oqibat va insoniylik, qut-barakaga bo'lgan buyuk ishonch, mo'l hosil olish go'yasi, el-yurt xotirjamligining turfa tomonlari badiiy talqin etilmoqda. Bahoriy bayram – Navro'zda aytib kelingan qadimiy qo'shiqlar to'planib, ommalashtirilmoqda. Chunki, u qo'shiqlarda mehr-oqibat, qut-barakaga bo'lgan buyuk ishonch, mo'l hosil olish g'oyasi, el-yurt xotirjamligi badiiy talqin qilinadi.



Vatan sog‘inchi, yurtidan ayriliq tuyg‘usi o‘rniga boshqa hech qanday tuyg‘u malham bo‘la olmasligini tarannum etadi. Masalan, mashhur qo‘shiqchilar, mashhur hofizlar tomonidan kuylangan ushbu qo‘shiqni, albatta, hamma eshitgan bo‘lishi mumkin.

Biz uchun o‘zga Vatan yo‘q,

Sen bizga jonsan Vatan.

Bu keng olam uzra tanho,

O‘zbekistonsan, Vatan.

Yordan ayrilgan yomondir,

Bordan ayrilgan yomondir.

O‘g‘lisan ozod yurtning

Barchasidan eng yomon,

Yurtidan ayrilgan yomon.

Ajdodlarimiz boshlagan ulug‘ ishlarni ochiq ko‘z, sog‘lom aql, davr sharoitlari va imkoniyatlari, ehtiyojlari asosida rivojlantirish, har qanday sharoitda ham milliy manfaatlar ustuvorligini sezish va ularni adolatli ravishda insonparvarlik, do‘stlik mezonlaridan chekinmay himoya eta bilish ham kerak bo‘ladi.

Xalq qo‘shiqlarida timsollar (simvollar) o‘ziga xos alohida mavzu bo‘lib, ularda xalqning hayoti, orzu-umidlari, tabiat bilan bog‘liqligi va dunyoqarashi ifoda etiladi. Timsollar qo‘shiqlarda badiiy vosita sifatida ishlatiladi va chuqur ma’no-yu mazmunni o‘zida mujassam etadi. Xalq qo‘shiqlaridagi asosiy timsollarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Tabiat timsollari. Bunda o‘simliklar, hayvonlar, osmon jismlari xalq qo‘shiqlarida keng ishlatiladi. Masalan:

Binafsha – sevgi va go‘zallik ramzi.

Bulbul – muhabbat va sadoqat timsoli.

Qaldirg‘och – bahor va xushxabar ramzi.

Tog‘ – bardoshlik va qudrat belgisi.

Inson va ijtimoiy hayot timsollari:

Ona – mehribonlik va oila timsoli.

Daryo – hayot oqimi va vaqt ramzi.



Yo‘l – taqdir, izlanish va kelajak ma’nolarini ifodalaydi.

2. Ranglar timsollari. Ranglar ham xalq qo‘shiqlarida muayyan ma’noni ifoda etuvchi timsollar sifatida keladi. Jumladan, qizil – sevgi, jo‘shqinlik va jasorat; oq rang – poklik va tinchlik; qora rang – g‘am va ayriliq ma’nosida qo‘llanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida qo‘shiqlarxalqimizning qadim o‘tmishi, milliy dunyoqarashi, mehnat jarayonidagimashaqqatini, xalqning ommaviy va individual kayfiyatini, orzu-istaklari va ruhiyatini aks ettiruvchi boy manba hisoblanadi. Bu esa ulardagi rang-barang timsollar vositasida yoritilib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madayev Omonulla. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
2. Sarimsoqov B. Qo‘shiqlar. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
3. Sarimsoqov B. «Alpomish» eposi haqida uch etyud. «Alpomish» - o‘zbek xalq qahramonlik eposi.
4. Juraeyev M. Mavsum qo‘shiqlari . O‘zbek mavsumiy marosim folklori. – Toshkent: “Fan”, 2008.